30.11.2024 № 12 (27)

Google Scholar OpenAIRE DRJI





“ILM-FAN VA TA’LIM” JURNALIGA QABUL QILINGAN MAQOLALARGA 3 ISH KUNIDA DOI RAQAM OLINADI VA ZENODO, OPENAIRE, CYBERLENINKA, GOOGLE SCHOLAR (10 ISH KUNI) KABI XALQARO ILMIY BAZALARDA INDEKSLANADI VA ILMIY JURNAL TO‘LIQ SHAKLDA WWW.ILMFANVATALIM.UZ RASMIY SAYTIGA JOYLANADI.

ISSN: 2181-4325

# ILM-FAN VA TA’LIM

## Respublika ilmiy jurnali

ZENODO | OPENAIRE | CYBERLENINKA | GOOGLE SCHOLAR

| | | | |
|---|---|---|---|
| Aniq fanlar | Texnika fanlari | Pedagogika fanlari | Ijtimoiy-gumanitar fanlar |
| Tabiiy fanlar | Iqtisod fanlari | Arxitektura | San’at va madaniyat fanlari |
| Tibbiyot fanlari | Filologiya fanlari | Qishloq xo‘jaligi | Jismoniy tarbiya va sport |

(+99891-152-93-14) talqin@bk.ru ILMFANVATALIM.UZ

**“Ilm-fan va ta’lim”** ilmiy jurnaliga qabul qilingan maqolalarga 3 ish kunida DOI raqam olinadi va Zenodo, OpenAire, Cyberleninka, Google scholar (10 ish kuni) xalqaro ilmiy bazalarida indekslanadi va jurnal to‘liq shaklda *https://ilmfanvatalim.uz/* rasmiy saytiga joylanadi.

# ILM-FAN VA TA’LIM

## ILMIY JURNALI

### BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

30.11.2024 | № 12(27)

**ILM-FAN VA TA'LIM**

ilmiy jurnal
scientific journal
научно журнал

**Bosh muharrir:**
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda bir marta nashr etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2023- yil 22 - yanvarda 059679 raqam bilan ro'yxatga olingan.

ISSN 2181 - 4325

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: https://ilmfanvatalim.uz/

## Tahrir kengashi:

**Isroilov Shaakram Xalmatovich**
*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti "Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati" kafedrasining professori*

**G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna**
*Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Yadgarova Ozoda Ibragimovna**
*Samarqand davlat chet tillar instituti gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti*

**Muydinov Erkin Djamaldinovich**
*Toshkent Moliya Instituti Andijon fakulteti dekani Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent*

**Djurakulova Dilfuza Farxodovna**
*Samarqand Davlat universiteti psixologiya kafedrasi o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Mamatov Obidxon Vaqqosovich**
*Namangan davlat universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi*

**Baymenova Kamshat Saparbayevna**
*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

**Yusupov Axror Qurbonovich**
*Qo'qon davlat pedagogika instituti, siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Rabbonayeva Dildora Tolipovna**
*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Ganiyeva Lola Muxsindjanovna**
*O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy Estrada San'ati instituti "Estrada cholg'u ijrochiligi" kafedrasi dotsenti San'atshunoslik fanlari nomzodi*

**Akbarov Qobuljon**
*Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix fanlari nomzodi*

**Nuriddinova Maysara Ikramovna**
*Samarqand davlat universiteti boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi dotsenti*

**Maxkamova Dilafruz Yuldashevna**
*O`zbekiston Milliy universiteti Tuproqshunoslik kafedrasi dotsenti*

**Komilov Ro'zi Rabiyevich**
*Samarqand davlat chet tillar instituti "Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari" kafedrasi professori v.v.b.*

# RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI METODISTINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

**Xusniyabonu Zokirova**
Bucheon universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida metodistlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqotda raqamli ta'lim muhiti sharoitida metodistlarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari hamda amaliyotdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Metodistlarning raqamli kompetentligini oshirish orqali ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlarni joriy qilish va pedagogik faoliyatni yangi bosqichga olib chiqish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha talim, metodist, kasbiy kompetentlik, raqamli ta'lim muhiti,raqamlitexnalogiyalar, innovatsion yondashuvlar, ta'lim sifatini oshirish, kasbiy rivojlanish, metodik yondashuvlar.

Данная статья посвящена вопросам развития профессиональной компетенции методистов в дошкольных образовательных учреждениях. В исследовании рассматриваются теоретические основы, методические подходы и практическое значение совершенствования профессиональной деятельности методистов в условиях цифровой образовательной среды. Анализируются возможности повышения качества и эффективности образовательного процесса через повышение цифровой компетенции методистов. Результаты исследования служат научно-практическим основанием для внедрения инновационных подходов в дошкольное образование и вывода педагогической деятельности на новый уровень.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, методист, профессиональная компетентность, цифровая образовательная среда, цифровые технологии, инновационные подходы, повышение качества образования, профессиональное развитие, методические подходы.

This article is dedicated to the issues of developing the professional competence of methodologists in preschool educational institutions. The research examines the theoretical foundations, methodological approaches, and practical significance of improving the professional activity of methodologists in the context of a digital learning environment. The opportunities for enhancing the quality and efficiency of the educational process through the improvement of methodologists' digital

competence are analyzed. The research findings serve as a scientific and practical basis for implementing innovative approaches in preschool education and advancing pedagogical activities to a new level.

**Keywords:** preschool education, methodologist, professional competence, digital educational environment, digital technologies, innovative approaches, improving education quality, professional development, methodological approaches.

**Tadqiqot dolzarbligi.** Raqamlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq global o'zgarishlar sharoitida ta'lim tizimi, ta'lim xizmatlari sifati va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirishga qaratilgan tub o'zgarishlarni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zarurati zamonaviy muammolar qatorida turadi. Bugungi kunda metodist va pedagoglarning raqamli savodxonligi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

Dunyo bo'ylab davlat tizimlari maktabgacha ta'lim metodistlarining raqamli ta'lim muhitida kasbiy kompetentsiyalarini oshirish uchun turli loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada "Early Childhood Education in the Digital Age" deb nomlangan loyiha o'tkazildi. Ushbu loyiha maktabgacha ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha metodistlarni tayyorlash uchun onlayn platformani ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, multimedia resurslari, o'yin ilovalari va onlayn o'quv platformalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Jumladan, Kanada davlatida ham "Impact of Online Professional Development on Early Childhood Educators' Technology Integration" tadqiqoti olib borildi. Tadqiqot onlayn ta'lim kurslarining pedagog va metodistlarning raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish qobiliyatiga ta'sirini baholashga qaratilgan. Bu loyihalardan shuni xulosa qilib aytish mumkunki, ta'limni raqamlashtirish - ta'lim jarayoni sifatini oshirishning strategik vazifasiga aylanib bormoqda va maktabgacha ta'lim muassasalari metodistlarining malakasini oshirishda raqamli platformalardan foydalanish bu muammoni hal etishning samarali mexanizmi hisoblanadi.

Turli mamlakatlarda pedagoglarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan muvaffaqiyatli tashabbuslar amalga oshirilmoqda: Jumladan, AQSh va Singapurda qisqa o'quv modullari bilan jihozlangan mobil platformalarni joriy qilish yuqori samaradorlikni ko'rsatdi. Video-darslar va raqamli vositalarni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan ushbu modullar nafaqat cheklangan vaqtda o'qitishni yengillashtirdi, balki pedagoglarning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan motivatsiyasini oshirdi (McKinsey, 2023).Fundación Telefónica tomonidan amalga oshirilgan ProFuturo dasturi (2016-yilda ishga tushirilgan) 45 dan ortiq mamlakatda

28 milliondan ortiq bolalar va 1,4 million o‘qituvchini qamrab oldi. Ushbu dastur texnologiyalar va innovatsion metodikalardan foydalangan holda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqod ishimiz mavzusi dolzarb hisoblanib, 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son qarori bilan "Ta'lim to'g'risida" gi qonunning 13-moddasi[149], 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni[150], 2020- yil 17-mart "Toshkent shahrida raqamli texnalogiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni[151], 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni[152] hamda "Raqamli O‘zbekiston 2030" strategiyasi[153], O'zbekiston Respublikasi Prezidentitning 11.09.2023-yildagi PF-158-son farmonidagi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

**Maqola maqsadi**: Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining kasbiy kompetentligini ilmiy jihatdan asoslash, takomillashtirish yo‘llarini aniqlash va shakllantirish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Metod.** Tadqiqot maqsadiga erishish va qo’yilgan vazifalar yechimini topish uchun kuzatish, tahlil qilish, eksperiment o’tkazish, modellashtirish kabi tadqiqot metodlaridan foydalaniladi.

**Muammoning o’rganilganlik darajasi:**

Mamlakatimizda pedagoglarning raqamli ta'lim muhitida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarni N.D Mirzahmedova[154], Sh.A. Abdurahmanova[155], I.I Rahmatov va Sh.I Rahmatova[156] va boshqalar olib borishgan va ular tomonidan tavsiyalar taqdim etilgan.

Jahon mamlakatlarida ham L.M. Marasinovoy[157], Y.V Sharonin[158], A.N. Smirnova va G.D. Redchenkova[159], T.V Potemkina[160], A.V Nevzorova[161], A.

---

[149] 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son qarori bilan "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni.
[150] 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
[151] 2020- yil 17-mart "Toshkent shahrida raqamli texnalogiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni.
[152] 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni
[153]“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son Farmoni.
[154]N.D Mirzahmedova”RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING TA’LIM SOHASIDA QO’LLANILISHI”, 2022.-548b.
[155] Shaxnoza Abduhakimovna Abduraxmanova “INDIVIDUALIZATION OF PROFESSIONAL EDUCATION PROCESS ON THE BASIS OF DIGITAL TECHNOLOGIES”. World Bulletin of Social Sciences, 2020.- 8, 65-67b.
[156] I.I Rahmatov va Sh.I Rahmatova “Raqamli ta’lim muhitida pedagoglarni samarali ishlashi uchun kompetensiyalarni shakllantirish”. "Science and Education" Scientific Journal”, 2023. – 381b
[157] L.M. Marasinovoy “Развитие цифровых компетенций педагога в цифровой образовательной среде”,2021. -77b.
[158] Y.V Sharonin “ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ВЫСШЕМ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: ОТ ЛИЧНОСТНО ОРИЕНТИРОВАННОЙ SMART-ДИДАКТИКИ К БЛОКЧЕЙНУ В ЦЕЛЕВОЙ ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ”,2019.-14b.

Bortvik[162] va boshqalar raqamli texnalogiyalarni ta'lim muhitiga joriy etishni ishlab chiqishgan.

Pedagoglar va metodistlarning raqamli ta'lim muhitida kasbiy kompetentsiyalarini oshirish masalasi turli ilmiy sohalarda oʻrganilgan. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qoʻllash, raqamli savodxonlik va pedagogik malaka oshirish boʻyicha bir qancha tadqiqotlar mavjud. Biroq, maktabgacha ta'lim metodistlarining raqamli texnologiyalarni oʻrganish va ulardan samarali foydalanish boʻyicha maxsus tadqiqotlar o'tkazishni talab qiladi. Shu sababli, ushbu masala oʻzining ilmiy va amaliy ahamiyatiga koʻra hali kam oʻrganilgan va bu tadqiqotning dolzarbligini oshiradi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:** Agar metodistlarning raqamli kompetentsiyalarini tizimli ravishda oshirish, maxsus tayyorlov dasturlari va raqamli vositalarni ularning faoliyatiga joriy etish yo'lga qo'yilsa, bu vositalar orqali ta'lim jarayonining sifatini oshirishga erishiladi va bolalarning raqamli jamiyatga tayyorlanishiga yordam beriladi.

**Muhokama:** Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida metodistlarning raqamli ta'lim muhitida kasbiy kompetentlik darajasi pedagogik jarayonlarning sifati va samaradorligiga bevosita ta'sir koʻrsatadi. Shu bois, metodistlarning kasbiy malakasini oshirish va ularni zamonaviy ta'lim muhitiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlaridan toʻliq foydalanish, innovatsion yondashuvlarni joriy qilish va metodistlarning kasbiy oʻsishiga koʻmaklashish zaruratidan kelib chiqadi. Metodistlarning raqamli ta'lim muhitida kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali nafaqat ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, balki bolalarning ta'lim olish jarayonini sifatli va interaktiv qilishga erishish mumkin.

Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalarni qoʻllashning metodik yondashuvlari tahlil qilinib, ularning metodistlarning kasbiy rivojlanishiga ta'siri oʻrganiladi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tizimida raqamli ta'lim muhitida kasbiy kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan samarali dastur va tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Ushbu masala maktabgacha ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim oʻrin tutadi.

---

[159] Методические рекомендации по внедрению в основные общеобразовательные программы современных цифровых технологий компоненты "Профессиональное развитие педагогов», «Учебный процесс", 2020.-27b.

[160] T.V Potemkina "Зарубежный опыт разработки профиля цифровых компетенций учителя" / Научно-теоретический журнал, – 2018. – № 2 (35).

[161] A.V Nevzorova "Изучение возможностей информационной среды образовательной организации в профессиональном развитии педагога "// Образование и воспитание. – 2017. – №1. – С. 9-11.

[162] A. Bortvik "Цифровая грамотность в педагогическом образовании: компетентны ли учителя?" – 2017. – № 33: 2. – С. 46–48.

**Xulosalar va tavsiyalar:** Metodistlarning raqamli ta'lim muhitida kasbiy kompetentligini rivojlantirish maktabgacha ta'lim jarayonining sifatini oshirishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar metodistlarga pedagogik jarayonni yanada samarali tashkil etish va bolalarning ta'limini innovatsion usullar bilan boyitish imkonini yaratadi. Kasbiy rivojlanish uzluksiz o'qish va maxsus dasturlar orqali amalga oshirilishi kerak.

**Foydalinilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son qarori bilan "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni.

2. 2020- yil 17-mart "Toshkent shahrida raqamli texnalogiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni.

3. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni

4. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son Farmoni.

5. N.D Mirzahmedova "Raqamli texnalogiyalarning ta'lim sohasida qo'llanilishi", 2022.- 548b.

6. Shaxnoza Abduhakimovna Abduraxmanova "Individualization of professional education process on the basis of digital technoloigies". World Bulletin of Social Sciences, 2020.- 8, 65-67b.

7. I.I Rahmatov va Sh.I Rahmatova "Raqamli ta'lim muhitida pedagoglarni samarali ishlashi uchun kompetensiyalarni shakllantirish". "Science and Education" Scientific Journal", 2023. – 381b

8. L.M. Marasinovoy "Развитие цифровых компетенций педагога в цифровой образовательной среде",2021. -77b.

9. Y.V Sharonin "Цифровые технологии в высшем и профессиональном оброзовании: от личностно ориентированной SMART-дидактики к блокчейну в целевой подготовке специалистов",2019.-14b.

10. Методические рекомендации по внедрению в основные общеобразовательные программы современных цифровых технологий компоненты "Профессиональное развитие педагогов», «Учебный процесс", 2020.-27b.

11. T.V Potemkina "Зарубежный опыт разработки профиля цифровых компетенций учителя" / Научно-теоретический журнал, – 2018. – № 2 (35).

12. A.V Nevzorova "Изучение возможностей информационной среды образовательной организации в профессиональном развитии педагога "// Образование и воспитание. – 2017. – №1. – С. 9-11.

13. A. Bortvik "Цифровая грамотность в педагогическом образовании: компетентны ли учителя?" – 2017. – № 33: 2. – С. 46–48.

| | | |
|---|---|---|
| | KAFOLATINING YARATILISHI<br>Atabayeva Nigora Mahmudjanovna<br>Maxmudova Dilnavoz Odiljon qizi<br>Qosimova Gulnora Qosimjon qizi | |
| 63. | O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA XALQ HOKIMIYATCHILIGI PRINSIPI<br>Meliboyeva Dilnoza Ergashevna | 415 |
| 64. | RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI METODISTINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI<br>Xusniyabonu Zokirova | 419 |
| 65. | O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YURIDIK XIZMAT SOHASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSLARI<br>Abdunazarova Xamidaxon Nosirjonovna | 424 |
| 66. | PEDAGOGIK FAOLIYATDA KREATIVLIK HAMDA KOMMUNIKATIVLIK KO‘NIKMALARI<br>Rahmonova Zulfiya Bahromovna | 430 |
| 67. | ИЛМИЙ ФАОЛИЯТ ВА УНИНГ ИЛК БОСҚИЧЛАРИДА ИЛМИЙ МАҚОЛАНИНГ АҲАМИЯТИ<br>Моҳисадаф Убайдуллаева | 435 |
| 68. | KURSANTLARNING O‘QUV JARAYONIGA PSIXOLOGIK TA’SIR KO‘RSATISHNING PSIXOKORREKSION OMILLARI<br>Qoraboev Avazbek Isomiddinovich | 438 |
| 69. | ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ХАЛҚАРО ШАРТНОМАЛАРИ ТЎҒРИСИДА<br>Шамсиддинов Бахтиёр Тожидинович | 444 |
| 70. | O‘ZBEKISTON RESPUBIKASI KONSTITUTSIYASIDA TASHQI SIYOSATI MASALALARI<br>Abdunazarova Xamidaxon Nosirjonovna | 461 |